

# Vazifalari

- Markazda yuklangan vazifalarni bajarilishi uchun shaxsan javob beradi;
- O‘z tuman hududida joylashgan AKMlari uchun uslubiy rahbarlikni tashkil etadi, ularni faoliyatini muvofiqlashtirib boradi;
- Toshkent shahridagi TAKM ishini muvofiqlashtiruvchi Toshkent shahar “Bilim” axborot-kutubxona markazi Metodik kengash faoliyatida faol ishtirok etadi;
- Markaz xarajatlar smetasini, shtatlar jadvalini, tarkibiy tuzilmalarning vazifalarini belgilaydi, lavozim yo‘riqnomalarini, ichki tartib qoidalariga oid normativ hujjatlarni tasdiqlaydi;
- Markazning tasdiqlangan tuzilmasi va xodimlarning cheklangan shtat birliklari soni doirasida o‘zgartirishlar kiritadi;
- AKM jamg‘armasini matbuot nashrlari va elektron resurslar bilan boyitish yo‘llarini qidiradi, nashriyotlar va boshqa axborot organlari bilan hamkorlik ishlarini olib boradi;
- Markazni bir me‘yorda faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlash maqsadida xodimlar va foydalanuvchilar uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratadi;
- Markaz mutaxassislari va xodimlari bilan mehnat shartnomalari (kontrakt) tuzadi va ularning amal qilinishini to‘xtatadi;
- Tasdiqlangan me‘yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq Markaz mutaxassislari va xodimlarini rag‘batlantirish chora-tadbirlarini ko‘radi va ularga intizomiy jazo choralarini qo‘llaydi;
- Tasdiqlangan me‘yoriy-huquqiy hujjatlarga va AKM nizomiga belgilangan tartibda Markaz mol-mulki va mablag‘larini tasarruf etadi, shartnomalar tuzadi, ishonchnomalar beradi;
- Markaz mutaxassislari va xodimlari bajarishi majburiy bo‘lgan buyruqlar chiqaradi va topshiriqlar beradi;
- Axborot-kutubxona resurslaridan to‘g‘ri va samarali foydalanishni nazorat qiladi;
- Markaz axborot-kutubxona fondlari, shu jumladan nodir va alohida qimmatga ega nashrlar, mavjud moddiy-texnika bazani belgilangan tartibda saqlash va rivojlantirish, bino, inshootlar, asbob-anjomlar va boshqa mol-mulkni saqlash va ulardan zarur darajada foydalanish uchun javobgardir;
- Tasdiqlangan me‘yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.